

**INGLIZ TILIDA TINGLAB TUSHUNISH BILAN BOG'LIQ
MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH HAMDA TINGLAB TUSHUNISH
MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi
mazurbekrustamjonov@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Sattorova Dildora Ikromboyevna**

**WAYS TO ELIMINATE PROBLEMS RELATED TO LISTENING AND
COMPREHENSION IN ENGLISH AND TO DEVELOP LISTENING SKILLS**

Rustamjonov Ma'zurbek Navro'zjon o'g'li
Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages
mazurbekrustamjonov@gmail.com
*Scientific supervisor: **Sattarova Dildora Ikrombayevna***

Annotation: This article examines students' listening problems and the factors that lead to students' comprehension related difficulties. This article also provides instructions on the importance, tasks and goals of listening comprehension skills in teaching foreign languages, especially English, and what to pay attention to its formation.

Key words: listening comprehension, modernized textbooks and manuals, listening materials, podcasts and subtitles.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning eshitish muammolarini o'rganish va talabalarning eshitish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklariga olib keladigan omillar bayon etiladi. Shuningdek, ushbu maqolada xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasining ahamiyati, vazifalari va maqsadlari, uni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi bo'yicha ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, zamonaviy darsliklar va o'quv materiallari, eshitish materiallari, podkastlar va matnli materiallar.

KIRISH

Inson tinglab tushunish orqali atrofidagi boshqa shaxslardan juda ko'p axborotlar oladi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy metodik yondashuvlarga, asosan, tinglab tushunish ko'nikmasi eng muhim ko'nikma hisoblanmoqda. O'tgan

asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining bir turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlangan. O'sha vaqtga qadar tinglashga gapirishning uzviy qismi sifatida qarab kelinar edi. Vaqt o'tgan sayin ushbu holat sekin-asta inqilobiy o'zgarishlar bilan bugungi kungacha davom etib keldi. Hozirda global dunyoda til bilish darajasini namoyon etuvchi turli yo'sindagi imtihonlar bo'lib, yoshlar shu imtihon orqali sertifikatlariga ega bo'lishmoqda. Jumladan, IELTS – xalqaro til bilish sertifikati, yoki bo'lmasa mamlakatimizda ayni vaqtda eng keng tarqalgan Multilevel imtihonlarini oladigan bo'lsak, ularning asosida ham o'rganuvchi yoshlarda tinglab tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ayni ushbu yo'nalishni ham yoshlar orasida keng targ'ib etgan holatda, ulardagi mavjud muammolarni hal etishga yordam berish muhim. Tinglash ko'nikmalarini o'rgatishning zamonaviy samarali usullari hamma narsani o'z ichiga oladi, masalan, interaktiv mashqlardan tortib multimedia resurslarigacha. Tinglash qobiliyati eng yaxshi va eng tez o'rganish mumkin bo'lgan qobiliyat sanaladi. Chunki o'rganishga birozgina ko'proq e'tibor qaratilsa u oddiy va qiziqarli tadbirlar orqali yaxshilanadi va yakunida yaxshi natijalarga olib keladi.

METODOLOGIYA

Ilmiy taraflama masalaga yondashuv qiladigan bo'lsak, xorijiy tillarni tinglab tushunishda bir qancha omillar to'sqinlik qilishi mumkin: nutqning tezligi, tilning ichki funksiyalari va mavjud lug'atning murakkabligi, vaqti-vaqti bilan diqqatni jamlash yoki eshitishning buzilishi kabi holatlar kuzatilishi ehtimoli mavjud.

Shu o'rinda asosiy muammolarga to'xtalib o'taylik:

➤ **Nutq tezligi:**

Hozirda ko'plab til o'rganuvchilar ingliz tilida gapirilayotgan nutqning tezligi sababli matnni to'liq anglay olmaydi. Nutq davomida nima haqida gap ketayotganini idrok qilgunicha, ancha vaqt o'tib ketadi. Tabiiy inglizabon mamkalatlar nutqida so'zlar odatda, qisqargan holatda og'zaki nutqda ishlatiladi, bunday holatda og'zaki nutqda bir qancha so'zlar bir-biriga ulanadi va ba'zan harflar yoki so'zlar tushib qolishi mumkin.

Masalan, “I want to describe” – “I wanna describe” (tovush tushishi); “Do it now” – “Do-v-it now” (tovush tushirilishi) tarzida og'zaki nutqda talaffuz etilishi kuzatiladi.

➤ **Lug'atning murakkabligi:**

Tinglab tushunish uchun berilgan maxsus matnlarida murakkab bo'lgan va notanish so'zlar uchraydi. Hamda ushbu jarayon o'rganuvchilarga tinglash va uni tushuna bilish mobaynida atroflicha muammolarni keltirib chiqaradi. Agar unda ma'lum so'zlar bo'lsa, o'quvchilar sinonim – ma'nodosh so'zlar orqali javobga yaqin kelishlari mumkin. Bundan tashqari, aytish mumkinki, yurtimiz turistik markazlarga ega

davlatlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ko'plab xorijiy mehmonlar oqimi yildan yilga oshib borishi odatiy holat deb ham aytish mumkin. Bunday holatda, "native speakers" ya'ni ingliz tili asosida muloqot qiluvchi mamlakatlardan turistlar ko'pincha yurtimiz turistik markazlari mehmoni bo'lishadi. Ular esa asosan, ingliz tilida mavjud mashhur "idioms" ya'ni idiom avafrazalaridan foydalanish holatlari ko'p uchraydi. Shu kabi vaziyatlarda ham o'ylash mumkinki, tinglovchi insonlarda turli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, tarjimonlarda og'zaki nutqda ishlatilgan fraza yoki idiomani so'zma-so'z tarjima qilishda xatolik yuzaga kelishi mumkin. Bilamizki, ingliz tilida idioma yoki har xil davlatlarda turli hazillarning "joke" (ingliz tilida) alohida o'zining maxsus ma'nosi mavjud, ularni tushunish uchun so'zma-so'z tarjima qilish esa suhbatdosh bilan muloqotda katta bir muammoni keltirib chiqarishi haqiqatga yaqin hisoblanadi. Negaki, ba'zi mamlakatlarda keltirilgan hazillarni muloqotda ko'p ham ishlatmasliklari ham mumkin. Bundan tashqari, shu kabi holatdan qochish uchun o'rganuvchi inson kontekstlar orqali o'rganishi ham mumkin, hamda video yoki podkastlar orqali tinglagan idiomasini oddiy tarzda emas, balki uni yozib olishi va uni o'z nutqida ko'proq takrorlashi ham juda ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, o'rganilayotgan jummalarni keyingi suhbat jarayonlarida ham qo'llab ko'rish, albatta, ularga ancha foydali bo'lib, o'zlarida ham tinglashda ancha yutuqqa erishishlariga sabab bo'ladi. Ushbu jarayon esa ularda tinglash ko'nikmasiga nisbatan qiziqish uyg'otib, shu bilan bir qatorda, o'ziga xos motivatsiya uyg'otishi va yoshlar o'rtasida tinglab tushunish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

➤ **Tinglashning uzoq davom etishi va uzunligi:**

Talabalar uzoq davom etuvchi tinglash mashqalarida ko'pincha, chalg'ish holatlari kuzatilib, berilgan topshiriqqa nisbatan, konsentratsiyani yo'qotib qo'yishadi. Ayni shu holat ularda diqqatni bir joyga jamlashda turli muammolarni yuzaga keltirib, fikrning buzilishiga sabab bo'ladi. Ayrim holatlarda, qisqa davom etuvchi tinglash bilan bog'liq audioparchalar talabalarning tinglab tushunishlarini osonlashishiga imkon beradi va nisbatan qiyinchilikni kamaytiradi.

Shuning asnosida, yosh o'rganuvchilar uchun dastlab, boshlang'ich darajadagi audiomatnlar (GRADED LISTENING) soddalashtirilgan holatda leksikaga va talaffuzga ega bo'lib, o'quvchilar uchun tushunarli bo'ladi. Bu orqali esa tizimli tarzda ularni tinglab tushunish mahoratini oshirib boorish imkonini beradi. Keyinchalik esa to'g'idan to'g'ri muloqot va suhbatlarga kirishish yaxshiroq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, subtitrli audiomateriallar va videolar tomosha qilgan holatda ham eshitish mahoratini kuchaytirish mumkin. Jumladan, inglizcha subtitrli kino yoki videolar orqali

ham eshitilgan hamda ko'rilgan materiallar o'zaro bir-birini to'ldiradi. Bu jarayon nafaqat, lug'atni, balki talaffuzni ham mustahkamlashga bevosita yordam beradi.

Shuningdek, kunlik reja bo'yicha har kuni yangi so'zlar, iboralar va ularning talaffuzini eshitish orqalin yodlash ham tinglab tushunishga ijobiy ta'sir qiladi. Ya'ni, berilayotgan audiomatnlarda keluvchi notanish so'zlar ham asta-sekinlik bilan ma'nodosh so'zlari qatori yodga tushishi oydinlashadi. Yana bir muhim omillardan biri sifatida aytib o'tish ham mumkinki, ayni vaqtda internet eng keng tarqalgan zamonda yashamoqdamiz, hamda hozirda bir qator ijtimoiy tarmoq vositalari orqali biz o'quvchilarni yanada eshitish salohiyatlarini oshirish imkoniyatiga egamiz. Masalan, BBC Learning English va VOA Learning English kabi qulay bo'lgan platformalar orqali kerakli hamyonbop va bepul podkastlarni yuklab olishimiz, shu bilan bir qatorda, ularni sabr bilan tinglagan holatda eshitish imkoniyatini oshirish imkoniyati mavjud. Ushbu platformalarda har bir darajadagi o'rganuvchi yoshlar uchun mos bo'lgan kerakli materiallar joylangan. Eng qulay tomoni shundaki, ushbu audio materiallarni tinglovchilar bemalol yo'lda yoki biron bir transport vositasida ketayotganda, yoki bo'lmasa muhim bir jismoniy ish bilan shug'ullanayotgan bir vaqtda tinglasa bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu maqolada tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun yuqorida bir nechta metodlar va ko'rsatmalar berildi. Tinglab tushunish ko'nikmasi - bu amaliyot orqali rivojlantirilishi kerak bo'lgan murakkab mahorat. O'qituvchilar o'z shogirdlariga tinglash jarayonlari va uning amaliy tomonlari haqida fikrlash imkoniyatini berishlari kerak. Ingliz tilida tinglab tushunish bilan bog'liq jarayonlarda o'qituvchining o'rnini muhim hisoblanadi. Chunki, u tinglash jarayonida ham o'quvchilarga yo'l-yo'riq (Direction) ko'rsatishi hamda ularni turli yo'llar bilan rag'batlantirish jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etishi muhim sanaladi. Tinglab tushunish mahorati chet tilini mukammal o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur ko'nikmani rivojlantirish uchun sabr-toqat, strategik yondashuv va doimiy amaliyot talab etiladi. Yaxshi rejalashtirilgan tinglab tushunish mashqlari orqali har qanday o'rganuvchi bu ko'nikmasini samarali tarzda rivojlantirishi mumkin. Muhimi — xatolardan cho'chimaslik va o'z ustida tinimsiz ishlashdir.

REFERENCES

1. *Rustamjonov M.N. "ingliz tilini yoshlarga o'qitish jarayonida yangicha va zamon talabiga mos texnologiyalar va pedagogik vositalardan foydalanish". (2025)*

2.

МШ

- Бахриддинова. Роль художественного текста в обучении иностранному языку как источника культурной информации. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika Foreign Linguistics and ..., 2023*
3. *U Normuhammad. Biografik Asarlar Tarixi Yoxud Moziyga Bir Nazar. Miasto Przyszłości 55, 279-280, 2024*
4. *I. S. P. Nation and J. Newton, "Teaching ESL/EFL Listening and Speaking" (Routledge: New York, 2009)*
5. *AK Uchkunovich. Mastering the art of writing: skills, strategies, and success. Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific ..., 2023*
6. *MS Bakhriddinova. Advantages and disadvantages of using authentic text. International conference on educational innovations and applied sciences, P ..., 2022*
7. *Goh, C. "Teaching Listening in the Language Classroom". Singapore: SEAMEO Regional Language Centre. (1999)*
8. *NX Ubaydullayev. The depiction of the image of a creative person in autobiographical inscriptions. Current research journal of philological sciences 2 (07), 36-39, 2021*
9. *Anderson, A., & Lynch, T. "Listening". Oxford University Press. (1988).*
10. *Brown, H. D. "Principles of Language Learning and Teaching" (5th ed.). Pearson Longman. (2007)*
11. *ZBM Gulnora Ulashevna Ochilova. The importance of teaching and learning vocabulary. International Scientific Research Journal (WoS), 1029-1033, 2022*
12. *Herbert J. Walberg, "Teaching speaking, listening and writing" (IAE Educational Practices Series. (2004)*
13. *U Normuhammad. A look at the history of biographical works or moses. International Journal of Pedagogics 4 (12), 232-234, 2024*
14. *OG Ulashevna. A Brief History of Study of Kinship Terms. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education 4 ..., 2024*
15. *D Sadullaeva, M Bakhriddinova. Learning culture through literary text. International Conference exploring global perspectives in language teaching ..., 2024*
16. *GU Ochilova. Teaching vocabulary to english for specific purposes (esp) students using communicative language teaching. Colloquium-journal, 57-58, 2021.*

17. Чуканина,
Д. Б., & Хакимов, М. Р. (2016). использование видео и аудио педагогических технологий в изучении иностранного языка. Ученый XXI века, 55.